

**MATEMATIKADA O'QUVCHILARNI KASBIY KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH METODI**

Yo'ldoshev Bekmirza Shuxrat o'g'li
TDPU magistri

Annotatsiya: Bizga ma'lumki jamiyat a'zolari biror kasb egasi bo'lishi orqali o'z hayot faoliyatini olib boradi bunda moddiy va ma'naviy boyliklar orttiradi. Bu jarayonda kasb muhim ahamiyatga ega bo'lib inson turmush-tarzining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Ushbu maqolada Matematika o'quvchilarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodi.

Kalit so'zlar: kompetentsiya, matematika, podshoh, metod, guruh, sinf, Farobi, kasb.

Ba'zi insonlar uchun kasb asosiy o'rinda bo'lsa ba'zilar uchun esa oila, do'stlar kabi boshqa ma'naviy tushunchalar asosiy o'ringa qo'yildi. Kasb albatta hunar tushunchasi bilan bir qatorda ta'lim tushunchasi bilan ham bog'liq va bu tushunchalar qadimdan mavjud bo'lib ular haqida Forobiyning "Agar kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lganda, podshohlar ham o'zlari istab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo'lgan, tabiat talab qilgan tabiiy bir majburiyat bo'lib qolar edi. Kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lmas ekan, xalqlar va shahar ahllarida, odob-ahloq, rasm-rusm, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilishi uchun insondagi zo'r kuch va qudrat talab qilinadi. Bu ikki yo'l bilan: ya'ni ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim degan so'z xalqlar shaharlar o'rtasida nazariy fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlari birlashtirish degan so'zdir [1]" fikrini keltirish mumkin. Kasb hunarni egallash qay darajada muhim ekanligi haqida Abu Ali ibn Sinoning yozgan asarlarida ham ko'rish mumkin. Uning fikricha bolaga yoshligidan biror kasb-hunarni o'rgatish lozim. Bola kasb-hunarni ma'lum darajada o'zlashtirib bo'lgandan so'ng o'z kasbhunaridan hayotda foydalanish, ya'ni halol mehnat bilan mustaqil hayot kechirishga o'rgatish kerak. "Yoshlarga ilm bera borib, ularga hunar o'rgatmoq muhim ma'suliyatli ishdir. Hunar o'rganish birla yoshlar har qanday nojo'ya hatti-harakatlardan holi bo'ladilar [2]" Kasb-hunarga o'rgatish, kasbga yo'naltirish ishlari qadimdan jamiyat taraqqiyotining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shakllanib kelgan va u o'z rivojlanish tarixiga egadir. Albatta "kasbga yo'naltirish kasblar paydo bo'lishidan va demak unga ehtiyoj yuzaga kelishidan ilgari paydo bo'lishi mumkin emas edi [3]" Kasb tushunchasiga oid turli fikrlar va qarashlar mavjud. Ularning barchasi hozirgi kunda mavjud kasbiy sohalarni anglatishga qaratilgandir. "Kasb" yoki "kasb qilmoq" so'z va tushununchalari arab tilidagi "kasaba" so'zining o'zagi bo'lib, u qo'lga kiritmoq, ishlab topmoq, qozonmoq, bir ishni bajarmoq, qandaydir foya - manfaatga erishmoq, yutuqqa ega bo'lmoq kabi ma'nolarni bildiradi. O'zbek tilining izohli lug'atida esa shunday keltiriladi: "Kasb – ish faoliyatining ma'lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan biror turi, sohasi." Kasbga yo'naltirib o'qitish esa pedagogikaning muhim tamoyili sifatida qaraladi. Bu tushunchani G.Alimatova o'z ilmiy ishida shunday yoritadi: "Kasbga yo'naltirilganlik" deganda shaxsning aniq bir mehnat faoliyatiga tayyorgarligi, qandaydir faoliyatga doir qobiliyatlar,

qiziqishlar, ehtiyojlar shaxsning eng asosiy sifatlaridan biri bo'lib, bunda kasbiy maqsad, qiziqish va moyilliklar kasb tanlash maqsadlari bilan o'zaro aloqada bo'ladi [4] Kasbga yo'naltirish ishi uzoq davom etuvchi faoliyatadir. Ilk kasbga yo'naltirish ishlari maktabgacha yosh davrida amalga oshiriladi. Keyingi jarayon kichik maktab davri ya'ni 1– 4 sinflarni qamrab oladi. "Maktab o'quvchilarining taxminan 30% tanlagan kasbiga nisbatan barqaror qiziqishlar boshlang'ich sinflardayoq shakllanar ekan. [3]" Yuqori sinfga o'tgach bolalarda turli psixologik va fiziologik o'zgarish amalga oshadi. Bu yosh davrida yetakchi faoliyat turi muloqot. Ular hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, ma'naviy dunyosi boyiydi, xarakteri shakllanadi. Ularning qiziqishlari barqaror bo'lmaydi. Ko'pincha qiziqishlari birdaniga boshlanib ketadi va shuningdek, tez yo'qolib ham ketadi. Boladagi ma'lum bir qiziqish o'rnini boshqa qiziqish egallaydi. Bunda bolaning biron kasbni qiziqish bilan tanlashi va yana o'zgartirishi kabi amalga oshishi mumkin. O'quvchilar o'zlarining kelajakda qilmoqchi bo'lgan ishlari va kasblari to'g'risida 7-8 sinfda o'ylay boshlaydilar. 14-15 yoshdagi o'smirlarning kelajagi masalasi oilaning jiddiy muhokama mavzusiga aylanib boradi va 9-sinfga kelib esa o'quvchi uchun kasb tanlash asosiy masalaga aylanadi. O'quvchi maktabda qolib o'qishi yoki akademik litseyda ta'lim olishini qiziqishlari va kelajakdagi egallamoqchi bo'lgan kasb doirasidan kelib chiqib hal etishga harakat qiladi. Bu jarayon tizimli davom etishida o'quvchilarining ba'zilari kasblarini aniq tanlaydilar, tasavvurlarga ega bo'ladilar, rejalarini oldindan tuzadilar. Ammo ba'zi o'quvchilar muammolarga duch kelishadi: - Kasb to'g'risida yetarli ma'lumotlarga ega emaslik; - Kasb tanlashda bir qarorga kela olmaslik; - Ikkilanishlar; - Ota-onha yoki bashqa kattalarning ta'sirida kasb tanlash - Tengdoshlariga sherik bo'lib kasb tanlash - Tasodifiy sabablarga ko'ra kasb tanlash. Buning natijasida keyinchalik tanlagan kasbidan norozi bo'lishi, ko'ngli sovushiga sabab bo'ladi. Kasbni to'g'ri tanlash – inson hayotidagi muhim qadam bo'lib, yoshlarning kelajakdagi hayot faoliyatlarida muvaffaqiyatlarga erishishlari kasbning qay darajada to'g'ri tanlanganiga bo'g'liq bo'ladi. Kasbni to'g'ri tanlashda psixologiyada quyidagi hislatlarni e'tiborga olishni nazarda tutadi: 1. Ichki ehtiyojlar, motivlar, qiziqish va intilishlar ("ISTAK") 2. Qobiliyatlar, layoqatlar, moyilliklar, bilimlar ko'lami ("IMKONIYAT") 3. Atrofdagilarning, yaqin kishilarning ta'siri, har xil ijtimoiy me'yorlar asosida shakllangan madaniy va ma'naviy qadriyatlар tizimi ("IJTIMOIY MUHIT") Bu tarkibiy qismlar shaxsda bir butunlikni tashkil etib, bir-birini taqozo etadi, biri ikkinchisiga nisbatan goh sabab, goh oqibat, goh esa sharoit sifatida namoyon bo'ladi. Kasbiy yo'nalganlik deganda shaxsning tarkibiy (ISTAK-IMKONIYAT-IJTIMOIY MUHIT) qismlarining muayyan bir yo'nalishdagi kasb talablariga mosligi, uyg'unligi tushunish maqsadga muvofiq [6]. Bu jarayonda o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda yana bir jihat borki bu jamiyatning kasbga bo'lgan munosabati. Bunda jamiyatda kasbga bo'lgan talab, ehtiyoj nazarda tutiladi. Albatta o'z navbatida yaqin kishilar jamiyatda mavjud munosib kasblarni shaxsning ongiga turli shakllarda maslahat, uqtirish, singdirish orqali amalga oshirib boriladi. Shuning uchun ham o'quvchilar kasbni to'g'ri tanlay olishga o'rgatish lozim. Bu orqali kelajakda yoshlarning o'z sohasi bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib yetishlariga asos bo'ladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, bu jarayon uzoq muddatli bo'lib, o'quvchilarini kasbga yo'naltirish ishlari uzviy davom

ettirilshi lozim. Matematikani o'qitish jarayonida o'quvchilarning matematik bilimlarni qay sohada qo'llash, real vaziyatlardagi muammolarni hal etish jarayonida foydalanish imkoniyatlarini o'qituvchi tomonidan ochib berilishi lozim bo'ladi. O'quvchilarning tanlagan yoki tanlamoqchi bo'lgan kasb sohalaridagi matematik tushunchalarga ekanligini bilgan o'quvchilar albatta matematik bilimlarni egallashga bo'lgan harakatlarini oshiradilar. Maktab matematika kursida statistik ma'lumotlar bilan ishlashni ko'rib o'taylik. Hozirgi zamonda aynan statistik ma'lumotlar bilan ishslash keng qo'llanilmoqda. Statistik ma'lumotlarni berish orqali o'quvchilarning matematik va kasbiy tushunchalarini shakllantirishga erishish mumkin. Buni ko'rib chiqaylik, Qurilish ishlari (mlrd. so'm) haqida yillar va viloyatlar kesimidagi ma'lumotlar Savollar.

1.Qaysi shahar yoki viloyatda eng ko'p pul sarflangan?

2. Qaysi shahar yoki viloyatda eng kam pul sarflangan. Toshkent sh. Farg'ona Xorazm 34 Zamonaviy matematikaning nazariy asoslari va amaliy masalalari

3. Toshkent shahrida 2009-2019 yillar orasidagi qurilish ishlari uchun sarflangan pul miqdori qanchaga ortgan?

Hududlar bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd.so'm)

Savollar.

1.Hududlar bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmining eng kattasi qaysi hudud?

2.Eng kichik chakana savdo tovar aylanmasi hajmiga ega hudud qaysi?

Keltirib o'tilgan har ikki ma'lumotlarni o'quvchilarga savollar berish orqali bir tomondan matematik bilimlarni o'zlashtirilishi ta'minlansa, ikkinchi tomondan kasbiy tushunchalarga ega bo'ladi. Bu yerda asosiy urg'u beriladigan savollarga bog'liq bo'ladi, chunki savolga javob berish orqali uning matematik bilimlarini sinaladi. Matematikani o'qitish jarayonida o'quvchilarni kasbga yo'naltirib o'qitish orqali ularning kelajakda o'z kasbiy faoliyatida matematikani keng qo'llash ko'nikmalarini shakllantirib borish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hikmatlar guldastasi T.1982.

2. Abu Ali Ibn Sino. Ta'lim va tarbiya haqida. T.1967.

3. Kasb tanlashga yo'llash. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma / Muslimov. N; R. Mullaxmetov O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2007. - 207 b.

4. Alimatova G.R. –“Kollej o'quvchilarining matematik tayyorgarligini kasbga yo'naltirish metodikasi”. //Diss...ped.fan.nomzod// Toshkent-2004.

5. Kasb tanlashga yo'llash. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma / Muslimov. N; R. Mullaxmetov O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2007. - 207 b.

6. B.R.Qodirov, K.B.Qodirov. Kasbiy tashxis metodikalari to'plami. Amaliyotchi psixologlar uchun metodik qo'llanma. -T.: O'zbekiston Milliy Universiteti – 2003.